



## **Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation**

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **THE PICTURE OF DORIAN GREY (DORIAN GREYNING PORTRETI) ROMANIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIZMLARNING ESTETIK MAZMUNI VA PRAGMATIK VAZIFALARI**

Xolmurodova Kamola Kodirovna

Assistent, Samarqand davlat universiteti

[xolmurodovakamola@gmail.com](mailto:xolmurodovakamola@gmail.com)

Hozirgi zamon tilshunosligida pragmatika mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, til birliklarining real nutq jarayonida qanday maqsadda, qaysi kommunikativ sharoitda va qanday ta’sir kuchi bilan qo‘llanishini tadqiq etuvchi soha sifatida qaraladi. Bu yo‘nalishda til faqat ma’no ifodalovchi vosita emas, balki insonning kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, pragmatik tahlilda so‘zlovchi shaxsi, uning niyati, tinglovchi va nutq vaziyati ya’ni, “inson omili” markaziy o‘rinni egallaydi<sup>1</sup>.

Pragmatika atamasi ilmiy muomalaga XX asrning 30-yillarida amerikalik faylasuf va semiotik Ch. Morris tomonidan kiritilgan bo‘lib, olim til belgilarini qo‘llovchi shaxslar bilan bog‘liq jihatlarni aynan pragmatikaning tadqiq obyekti sifatida belgilaydi. Olim semiotikani uch asosiy yo‘nalishga ajratadi: sintaksis (belgilar o‘rtasidagi munosabat), semantika (belgilar va ular ifodalagan obyektlar o‘rtasidagi munosabat) hamda pragmatika (belgilar va ularni qo‘llovchi shaxslar o‘rtasidagi munosabat)<sup>2</sup>. Mazkur yondashuv badiiy matnni tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega, chunki adabiy asarda til birliklari muallifning estetik va kommunikativ niyatiga bo‘ysundiriladi.

Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanishi, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat, nutq vaziyati

---

<sup>1</sup> Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: CUP, 1983. – P. 5-7.

<sup>2</sup> Morris Ch. Foundations of the Theory of Signs. – Chicago: University of Chicago Press, 1938. – P. 30-33.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

hamda kommunikativ maqsadlar bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganadigan soha sifatida talqin etiladi. Keyingi ilmiy tadqiqotlarda pragmatika lingvistik yo‘nalish sifatida kengaydi va nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya, deiksis kabi tushunchalar bilan boyidi. S. Levinsonning ta’kidlashicha, pragmatika – bu “tilni foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan o‘rganish” dir<sup>3</sup>. Demak, pragmatik yondashuvda til birligi nafaqat nimani anglatishi, balki qanday maqsadda va qanday ta’sir bilan ishlatilishi bilan baholanadi.

Pragmatik vazifa nutq birligining muayyan vaziyatda bajaradigan kommunikativ funksiyasi bilan belgilanadi. Bunda asosiy e’tibor nutq orqali qanday ta’sir ko‘zlanayotganiga qaratiladi. J. Mey pragmatikani tilning inson faoliyatidagi real ishlatilishi bilan bog‘lab, nutq birliklarining vazifaviy tomonini asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi<sup>4</sup>. G. Lich esa pragmatik vazifalarni nutqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli bilan izohlaydi. Uning fikricha, pragmatika nutq orqali nafaqat axborot uzatish, balki baholash, ta’sir o‘tkazish va munosabat bildirish kabi vazifalarni ham amalga oshiradi<sup>5</sup>. Badiiy matnda ushbu vazifalar obraz yaratish, baholash, hissiy ta’sir uyg‘otish hamda estetik mazmuni kuchaytirishga xizmat qiladi.

J. Serl nutq aktlarini assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratadi. Frazeologik birliklar, ayniqsa, ekspressiv va assertiv aktlar tarkibida faol qo‘llanilib, pragmatik ta’sir kuchini oshiradi<sup>6</sup>.

G. Grays tomonidan ilgari surilgan implikatura nazariyasiga ko‘ra, nutqda bevosita aytilmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan qo‘shimcha ma’no mavjud bo‘ladi<sup>7</sup>. Frazeologik birliklar ko‘pincha aynan shu yashirin ma’noni

<sup>3</sup> Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: CUP, 1983. – P. 24.

<sup>4</sup> Mey J. *Pragmatics: An Introduction*. – Oxford: Blackwell, 2001. – P. 6-9.

<sup>5</sup> Leech G. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – P. 15-21.

<sup>6</sup> Searle J. *Speech Acts*. – Cambridge: CUP, 1969. – P. 23-30.

<sup>7</sup> Grice H.P. “Logic and Conversation.” *Syntax and Semantics 3*. – New York, 1975. – P. 41-58.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. O. Uayld romanida ko‘plab frazeologizmlar aynan shu yashirin ma’noni yetkazish vazifasini bajaradi. “*I can resist everything except temptation*” kabi iboralarda mantiqiy ziddlik orqali kinoyaviy implikatura yuzaga keladi va bu holat qahramonning hayot falsafasini ochishga xizmat qiladi. Presuppozitsiya esa o‘quvchining umumiy bilimlariga tayanib, matnning chuqur semantik qatlamini shakllantiradi. J. Cutting presuppozitsiyani matnning yashirin semantik qatlamini tashkil etuvchi muhim pragmatik mexanizm sifatida baholaydi<sup>8</sup>. Badiiy asarda muallif o‘quvchining umumiy bilimlariga tayangan holda frazeologizmlar orqali chuqur estetik va axloqiy ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Frazeologik birliklar badiiy matnda yuqori darajadagi obrazlilik, emotsional-ekspressivlik va baholovchi xususiyatga ega bo‘lib, ularning pragmatik imkoniyatlari nihoyatda kengdir.

Frazeologik birliklarning estetik vazifasi badiiy matnning obrazlilik, emotsional ta’sirchanligi va yaxlitligini ta’minlash bilan bog‘liq<sup>9</sup>. Oskar Uayld frazeologizmlardan nafaqat badiiy bezak sifatida, balki o‘quvchi estetik didiga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida foydalanadi. Natijada, roman tili obrazli, jozibador va o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladigan darajada ta’sirchan bo‘ladi.

Mazkur romanda frazeologik birliklar muallifning badiiy-estetik konsepsiyasini amalga oshiruvchi muhim pragmatik vositalardan biri hisoblanadi. Asarda qo‘llanilgan frazeologizmlar faqatgina obrazlilikni kuchaytirish bilan cheklanmay, balki qahramonlarning psixologik holati, axloqiy tanlovi va dunyoqarashini o‘quvchiga yetkazishda faol ishtirok etadi. Frazeologik birliklarning pragmatik tahlili ularning matndagi kontekstual ma’nosi, yashirin implikaturasi hamda o‘quvchiga ko‘rsatgan perlokutiv ta’sirini aniqlashga

<sup>8</sup> Cutting J. Pragmatics and Discourse. – London: Routledge, 2002. P. 2-5.

<sup>9</sup> Leech G. Language in Literature. – London: Longman, 2008. – P. 15-21.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qaratiladi<sup>10</sup>. “The Picture of Dorian Gray” asaridagi “*To be in love with one’s own beauty*” frazeologizmiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu frazeologik ifoda romanda Dorian Grey obrazini tavsiflash jarayonida uchraydi. Birlik bevosita ma’noda “*o‘z go‘zalligiga oshiq bo‘lish*” degan tushunchani ifodalasada, kontekstda u narsissizm va axloqiy beparvolik ramziga aylanadi. Frazeologizm obrazga poetik tus bag‘ishlab, tashqi go‘zallikning ichki qadriyatlardan ustun qo‘yilishini estetik jihatdan ko‘rsatadi. Uayld ushbu ifoda orqali go‘zallik kultini ideallashtiradi, biroq yashirin tanqidni ham mujassamlashtiradi. Pragmatik vazifasiga ko‘ra ushbu frazeologizm Dorian shaxsiga nisbatan yashirin salbiy munosabatni shakllantiradi. Perlokutiv ta’sir jihatdan esa o‘quvchida qahramonga nisbatan xavotir va shubha uyg‘otadi. Bu birlik orqali muallif o‘quvchini go‘zallikka sig‘inishning oqibatlarini haqida mulohaza yuritishga undaydi<sup>11</sup>.

Asar davomida Lord Genri nutqida ishlatilgan “*To poison someone’s mind*” frazeologizmi Lord Genri Uottonning Dorianga bo‘lgan ta’sirini ifodalashda qo‘llaniladi. Birlik metaforik tarzda ongni zaharlash, ya’ni noto‘g‘ri g‘oyalar bilan to‘ldirish ma’nosini anglatadi. Mazkur frazeologizmni estetik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, birlik dramatik obrazlilikni kuchaytirib, Lord Genri nutqining xavfli va manipulyativ xarakterini ochib beradi. Estetik jihatdan bu birlik roman konfliktining markaziy nuqtasini belgilaydi. Pragmatik jihatdan esa, ta’sir o‘tkazish va implikativ vazifalarni ifodalaydi. Dorian ongiga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish ishontirish va undashni, Lord Genri ta’sirining halokatli ekanini yashirin tarzda ko‘rsatish esa implikativlikni ifodalaydi.

Roman davomida majoziy mazmunda ishlatilgan “*To sell one’s soul*” frazeologik birlik Dorianning axloqiy tanlovini ifodalovchi asosiy frazeologik vositalardan

<sup>10</sup> Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 27-30.

<sup>11</sup> Wilde O. The Picture of Dorian Gray. – Oxford: OUP, 2008. – P. 42-44.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd February, 2026

Website: <https://econferencia.com>

biridir. Ushbu frazeologizm diniy-falsafiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, roman estetik qatlamiga metafizik chuqurlik olib kiradi. U orqali Dorian tashqi go‘zallik evaziga ichki poklikdan voz kechayotgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy-baholovchi vazifa va o‘quvchini ogohlantiruvchi perlokutiv ta‘sir bevosita pragmatik vazifani izohlaydi. Bu birlik o‘quvchida “go‘zallik va axloq o‘rtasidagi ziddiyat” mavzusini markazga olib chiqadi<sup>12</sup>. “*A mask of innocence*” frazeologizmi Dorian Gray tashqi ko‘rinishi va ichki mohiyati o‘rtasidagi tafovutni ifodalaydi. Obrazlilik nuqtai nazaridan bu birlik kontrast usuliga asoslangan bo‘lib, tashqi beg‘uborlik va ichki buzuqlik qarama-qarshiligini kuchaytiradi. Pragmatik jihatdan, xarakter yaratish va presuppozitsion vazifa, o‘quvchi Dorian haqidagi salbiy haqiqatni oldindan sezadi. Bu frazeologizm roman drammatizmini oshirishga xizmat qiladi<sup>13</sup>.

Yuqorida tahlil qilingan frazeologik birliklar shuni ko‘rsatadiki, Oskar Uayld romanida frazeologizmlar quyidagi asosiy pragmatik vazifalarni bajaradi: o‘quvchiga yashirin axloqiy baho yetkazish, qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, estetik zavq va emotsional reaksiya uyg‘otish, muallif g‘oyasini implikativ tarzda yetkazishdir. Frazeologizmlar roman estetik tizimining ajralmas qismi bo‘lib, pragmatik jihatdan faol til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi.

<sup>12</sup> Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – P. 183-185.

<sup>13</sup> Toolan M. Narrative: A critical Linguistic Introduction. – London: Routledge, 2001. – P. 89-91.